

---

## “Xalq so‘zi”: Farg‘onada qadimiy hunarmandchilik namunalari topildi

Xalqaro hunarmandchilik festivaliga tayyorgarlik doirasida ta‘mirlanayotgan “Dasturxonchi” madrasasidan qadimiy hunarmandchilik namunalari topildi.

Madrasani asl ko‘rinishiga qaytarish maqsadida tom qismini yangidan qoplash, fasad qismlarini yangilash bilan bir qatorda hujralar va hovli qismini zax o‘tishini oldini olish uchun 50 santimetr chuqurlikda kavlashga kirishgan quruvchilar qadimgi hunarmandchilik san‘ati namunalarini topdilar.

Kapital rekonstruksiya ishlarining borishi bilan tanishish asnosida tarixiy obidaga tashrif buyurgan shahar hokimi Ma‘rufjon Usmonov topilma ko‘zalarni qaysi davrga oid ekanligini aniqlash maqsadida ilmiy tadqiqotlarni olib borish yuzasidan ko‘rsatmalar berdi.

Qo‘qon O‘lkashunoslik muzeyi ilmiy xodimi Yaxyoxon Dadaboyevning dastlabki o‘rganishlari asosida qilgan xulosalari shuki, ko‘zalar “Dasturxonchi” madrasasi qurilgan paytdan oldingi davrga taalluqli ekani haqida darak bermoqda. Bu noyob topilmalar, albatta, Qo‘qonda hunarmandchilik qadimdan keng rivoj topganiga yana bir dalil bo‘la oladi.

Topilmalar qaysi davrga tegishli ekanligi va ularni yoshini aniqlash kabi ilmiy izlanishlar davom etmoqda.

2019-03-07 15:07:26